



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

YURIY BREGEL TOMONIDAN O'RGANILGAN MUHAMMAD RIZO OGAHINYING IJODIY MEROSI

Odilov Og'abek Odil o'g'li

TDSHU talabasi

Annotasiya : *Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy ijodiy merosini amerikalik Yuriy Bregel tomonidan o'rganilishi, tadqiqot ishlari olib borilganligi, shu bilan birgalikda Munis qalamiga mansub bo'lgan "Firdavs ul-iqbol"ni Ogahiy oxirigacha yetkazishini o'rganishiga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *Xiva xonligi, muhit, "Firdavs ul-iqbol", adabiy meros, tarjima maktabi, Munis, tarixnavis.*

Muhammad Rizo Ogahiyning ijodiy merosini juda ko'p tarixchilar o'rgangan. Shulardan eng taniqlisi albatta Yuriy Bregeldir. U aslida kim edi. Kelib chiqishi yahudiy bo'lgan Yuriy Bregel SSSRda taniqli siyosatchi va iqtisodchi Enoch Bregelning o'g'li bo'lgan. U o'n olti yoshga to'lganida oilasi Farg'ona shahriga ko'chib o'tadi va 1943 yilda Sovet armiyasi safiga qo'shilgan. Maxsus artilleriya bo'linmasida xizmat qiladi. Belorussiyada, Polshada, Germaniyada jang qilgan. Og'ir janglarda ikki marta jarohatlanib, gospitalga jo'natiladi. U urush tugaydi. Urushdan keyin Yuriy Bregel Moskva universitetining tarix fakultetiga o'qishga kirdi va u yerda Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Islom tarixini o'rgannadi. "Xalqlar otasi" Stalinning buyrug'iga asosan 1949 yilning kuzida Bregel "antisovet faoliyati" da ayblanib hibsga olingan. Keyingi besh yilni Ural shimolidagi og'ir mehnat lagerida o'tkazdi. Ozodlikka chiqqach, o'qishni davom ettirdi va 1961 yili Moskvadagi Sharqshunoslik institutida doktorlik darajasigacha chiqadi.

O'tgan asrning 60-70-yillarida taniqli sharqshunos olim Vasiliy Bartold bilan juda samarali ishlarni amalga oshirida. U bilan O'rta Osiyoga bo'lgan mehri yanada kuchaydi. Bregelga Bartold ilmiy rahbar ham edi. Mana shunisi kelajakdagi rejalariga poydevor bo'lib xizmat qildi. 19-asr Xiva xonligi ijtimoiy, ma'naviy muhit, turkman yovmutlari hayoti, Munis hamda Ogahiyning ijodiy merosiga qiziqadi. Bundan tashqari menimcha fors adabiyotiga ruslarda katta qiziqish uyg'otgan bu Yesenin (masalan: "Xurosonda bir darvoza bor" degan she'ri) dir. Tarixchi bo'lgan Bregel fors tilini o'rganishga ahd qilishi "Firdavs ul-iqbol"ni tadqiq etishga turtki bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Munis tomonidan yozilgan lekin oxirigacha tugallanmagan "Firdavs-ul-iqbol" asarini Ogahiy maromiga yetkazib, mazmunan yakun yasaydi. Bu asar Xorazmning qadimgi davridan to 1825- yilgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan. Bu asarni o'rganish ishlarini aynan Bregel boshlab bergan. 1981-yilda AQSHning Indiana shtatiga ko'chib o'tgan Yuriy Bregel 1988-yilda mana shu mavzu asosida ilmiy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

maqolasini taqdim etadi. Ilmiy maqola Indiana shtatining Indiana Universiteti Markaziy Osiyo tillari kafedrasida taqdim etiladi. 1999-yilda ilmiy maqolla ingliz tilida tarjima qilinib dunyoning turli mamlakatlariga namoyish etilgan.

Y.Bregel asarning uslubi borasida o'z fikrlarini bildirib, rus olimi P.P.Ivanovning "asar nihoyatda jimjimador, arabiy-forsiy iboralarga, metaforalarga to'la tarzda bitilgan" degan qarashlarini unchalik to'g'ri emas, biroz mubolag'ali deb hisoblaydi. Olimning fikricha, Munis va Ogahiyning bayon uslubi sinkretik (aralash) xususiyatga ega. Mualliflar ayriman'anaviy tasvirlar: harbiy yurishlar, shohlarga xos jihatlarni yoritishda murakkab istioraviy bayon uslubidan, boshqa tasvirlarda oddiy uslubdan foydalanilgan.

Mukammallik asli oddiylikda. Ivanovning yuqoridagi gaplariga qo'shilmasligi asosiy sabab Ogahiyning borini boricha yozganligi, xolislik bilan nazar tashlanganligi, mulohazani chuqurroq olganligi bunga isbot bo'ladi. Qush tilini qush biladi deganlaridek Bregel ham tarixnavis edi. "Firdavs ul-iqbol" ishqiy-sarguzasht yo'nalishida emas xronologik ketma ketlikda bayon etilgan. Bregel esa bu asardan Xiva xonligiga qaram bo'lgan yovmutlar hayot tarzi haqida ulkan ma'lumot yig'ishga ulguradi.

"Olimning ta'kidlashicha, matnni tayyorlash 1977-78-yillarda Prinstondagi ilmiy izlanish institutida yakunlangan. 1981-yilda «Brill» nashriyoti yillar davomidagi izlanishni chop etishga rozilik bildirgan, ammo xar xil texnik qiyinchiliklar tufayli bosib chiqarish besh yil davom etgan. Nihoyat, "Firdavsul-iqbol" asarining Yu.Bregel tayyorlagan ilmiy tanqidiy matni 1988 yilda nashr qilingan. Xullas, amerika olimi Y.Bregel umrining chorak asrini "Firdavsul-iqbol" asarini har tomonlama tadqiq qilishga bag'ishlagan."

("OGAHIY IJODINING AMERIKADA O'RGANILISHI"

Gulnoz XALLIYEVA maqolasidan.)

Bu maqoladagi fikrlarga albatta qo'shilaman. Chunki Yuriy Bregelning 25yili Ogahiyning birgina asarini ilmiy o'rganishga ketdi. Agarda hamma asarlarini o'rganida Bregelga o'xshagan tarixnavis olimlardan o'nta ham yetmagan bo'lardi. Aytgancha Bregel bu asarni ilmiy o'rganar ekan to'rtinchi qismidagi so'z boshilarga juda katta e'tibor qaratadi chunki unda Xorazm tarixining asosiy qismlari tasvirlangan edi. Y.Bregel so'zboshisidan shu narsa tushunish kerakki asardagi manbalar, asosan, 18-19- asr Xorazm tarixiga bag'ishlov ekanligini anglash mumkin.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Vikipediya ma'lumotlari.
2. «MUHAMMAD RIZO OGHIYNING O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI». Toshkent -2020.
3. Firdavs al iqbal History of Khorezm, edited by Yuri Bregel. Leiden. New York. 1988.